

“YULDUZLI TUNLAR TARJIMASIDA MILLIY RUHNI SAQLASH MASALASI”

Xabibullayeva Manzura Shuxratovna

Toshkent davlat O‘zbek tili va Adabiyoti universiteti

Tarjima Nazariyasi va Amaliyoti fakulteti, ingliz

4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Primqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” asari tarjimasida milliy ruhning saqlash masalasi o‘rganildi. Asarning o‘zbek xalqi milliy qadriyatlari, madaniyati va tarixiy tafakkurini ifodalovchi jihatlari tarjima jarayonida qanday aks etgani tahlil qilindi. Tadqiqotda qiyosiy tahlil, lingvokulturologik yondashuv hamda matnshunoslik usullari qo‘llanildi. Asarning o‘zbekcha matni va uning tarjima variantlari o‘rtasida leksik, semantik hamda madaniy ekvivalentlik jihatlari solishtirildi. Tahlillar natijasida tarjimon tomonidan milliylikni ifodalovchi ayrim so‘z va iboralarga muvaffaqiyatli milliy ekvivalentlar topilgani aniqlandi. Shu orqali tarjimada milliylikni saqlash darajasi aniqlanib, milliy ruhni to‘liq yetkazish uchun lingvokulturologik yondashuvning ahamiyati isbotlandi.

KALIT SO‘ZLAR: madaniy kontekst, milliy identitet, lingvokulturologik tahlil, strategik yondashuv, badiiy obraz, ekvivalentlik, tarjima strategiyasi, milliy qadriyatlar.

Annotation: This article examines the issue of preserving national spirit in the translation of Primqul Qodirov’s novel “Yulduzli tunlar” (“Starry Nights”). It analyzes how elements reflecting the Uzbek people’s national values, culture, and historical thinking are conveyed in translation. The research employs comparative analysis, a linguocultural approach, and textual analysis methods. Lexical, semantic, and cultural equivalence between the original Uzbek text and its translated versions is compared. The findings reveal that the translator successfully identified appropriate

national equivalents for several words and expressions that carry cultural identity. Consequently, the degree of national spirit preserved in the translation is determined, demonstrating the importance of a linguocultural approach in fully conveying national features.

KEYWORDS: *cultural context, national identity, linguocultural analysis, strategic approach, artistic image, equivalence, translation strategy, national values.*

Аннотация: *В данной статье исследуется проблема сохранения национального духа при переводе романа Примкула Кодирова «Юлдузли тунлар» («Звёздные ночи»). Анализируется, каким образом в процессе перевода переданы элементы, отражающие национальные ценности, культуру и историческое мышление узбекского народа. В исследовании применены методы сравнительного анализа, лингвокультурологического подхода и текстологии. Сопоставлены лексическая, семантическая и культурная эквивалентность оригинального узбекского текста и его переводных вариантов. Результаты анализа показали, что переводчику удалось подобрать удачные национальные эквиваленты для ряда слов и выражений, передающих национальный колорит. Таким образом, определена степень сохранения национального духа в переводе и доказана важность лингвокультурологического подхода для его полноценной передачи.*

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *культурный контекст, национальная идентичность, лингвокультурологический анализ, стратегический подход, художественный образ, эквивалентность, переводческая стратегия, национальные ценности.*

KIRISH

Hozirgi davrda jahon miqyosida adabiyot va tarjima sohalarida kechayotgan jarayonlar milliy adabiy merosni asrab-avaylash, uni xalqaro miqyosda tan olish va targ'ib etish bilan bog'liq yangi masalalarni yuzaga keltirmoqda. Tarjima jarayoni

faqatgina matnni bir tildan boshqasiga ko'chirish bilan cheklanmaydi. U asliyatdagi ruhiy, estetik, mantiqiy, madaniy hamda ma'naviy bog'liqlikni saqlab qolishni talab etadi. Ayniqsa, she'riyat va nasrda uchraydigan badiiy tasvir vositalarining to'g'ri talqin etilishi, ularning yangi madaniy muhitda tabiiy tarzda yashab ketishi tarjimon mehnatining eng murakkab va mas'uliyatli jihatlaridan biridir. Tarixiy asarlar - adabiyotning muhim janrlaridan biri bo'lib, unda ma'lum bir davrning tarixiy voqealari, siyosiy holati, madaniy hayoti va insonlar turmushi badiiy tarzda aks ettiriladi. Bunday asarlar bir necha asosiy vazifalarni bajaradi.

o'quvchilarga o'tgan davrlar hayoti, urf-odatları va qadriyatlari haqida ma'lumot beradi;

tarixiy shaxslar va voqealar orqali insoniyat tarixini boyitadi;

turli xalqlarning madaniy hamda diniy realliklarini o'zaro solishtirish va tahlil qilish imkonini yaratadi¹.

Haqiqatdan ham, tarixiy asarlar insonning o'tmishni tasavvur qilish qobiliyatini kengaytiradigan eng kuchli badiiy vositalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, turli xalqlar madaniyati va ijtimoiy hayotini solishtirish imkoniyati bu janrning ahamiyatini yanada oshiradi. Tarixiy shaxslarning xarakteri, qarorlari va taqdiri orqali bugungi kun uchun ham dolzarb xulosalar chiqarish mumkin bo'lgani sababli, bunday asarlar bilim berish bilan birga ma'naviy tarbiya vazifasini ham bajaradi.

Tarixiy asarlarning tarjimasi esa ushbu funksiyalarni saqlab qolish, shuningdek, tarjima tilidagi o'quvchida ham asl matndagi kabi estetik va hissiy ta'sir uyg'otishga intiladi. Bunday asarlarning tili va uslubiga to'xtaladigan bo'lsak, ular o'ziga xos lingvistik va stilistik xususiyatlarga ega: eski (arxaik) so'zlar va iboralar, o'sha davrga xos grammatik tuzilmalar, metaforalar va boshqa badiiy vositalardan foydalanish, emotsional-estetik ta'sirni kuchaytiruvchi so'z tanlovi, hamda madaniy va tarixiy kontekstga chuqur bog'liqlik shular jumlasidandir. Shu bois, bu xususiyatlar tarixiy

¹ (Vinay J.P. & Darbelnet J., *Comparative Stylistics of French and English*, 1995, Amsterdam: John Benjamins Publishing).

asarlarni tarjima qilish jarayonida ko‘plab murakkabliklarni keltirib chiqaradi. O‘zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri sanalgan Pirimqul Qodirovning **“Yulduzli tunlar”** romani zamonaviy adabiyotshunoslikda alohida o‘rin tutuvchi asarlardan biridir. Muallif bu asarni yaratish jarayonida o‘n yil davomida ilmiy izlanishlar olib borgan. Mazkur roman O‘zbekistonning XX asr o‘rtalaridagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, inson ruhiyati va tafakkurini chuqur yoritib bergan fundamental adabiy yodgorlik sifatida qadrlanadi. Asar so‘zlar yig‘indisigina emas, balki milliy ruh, madaniy xususiyatlar hamda xalqning dunyoqarashini ifodalovchi badiiy timsollarning yorqin namunasi hisoblanadi. Shu bilan birga, roman kitobxonni qahramonlarning tafakkur doirasi, hayotiy qarashlari, tarixiy an‘analar, urf-odatlar va milliy madaniyat bilan yaqindan tanishtiradi.

Tarixiy matnlarni tarjima qilishda tarjimon bir qator muammolarga duch keladi. Ularning eng asosiylaridan biri — arxaik so‘z va iboralarni to‘g‘ri tarjima qilish masalasidir. Chunki tarixiy asarlarda bunday so‘zlar juda tez-tez uchraydi. Ularning aksariyati zamonaviy tilda qo‘llanilmaydi yoki ma‘nosi o‘zgarib ketgan bo‘ladi. Masalan, Pirimqul Qodirovning *“Yulduzli tunlar”* romanida uchraydigan “yog‘iy” so‘zi bugungi o‘zbek tilida deyarli ishlatilmaydi va asarda “dushman” ma‘nosida kelgan. Har bir til o‘ziga xos grammatik tuzilishga ega bo‘lib, ular bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Masalan, qadimgi lotin yoki fors tillarida zamon tizimi hamda jins kategoriyasi zamonaviy tillardagiga qaraganda ancha murakkab tuzilgan. Shu sababli ayrim hollarda bu tillardagi zamon shakllarini to‘g‘ri tarjima qilish ancha qiyin bo‘ladi. Bundan tashqari, ba‘zi grammatik tuzilmalar tarjima tilida to‘liq ekvivalentga ega bo‘lmasligi ham mumkin. Shuningdek, arxaik so‘zlarni biz kasb nomlarida ham uchratishimiz mumkin. Oldingi davrda kasb-hunarni anglatgan so‘zlar hozirgi kunga kelib arxaik so‘zlarga aylangan. Ba‘zi birlarini hozirda boshqa nom bilan ataymiz lekin ba‘zilari esa ishlatilish kuchini yo‘qotgan. Masalan, *“Yulduzli tunlar”* romanida dorug‘a, xattot, kadxudo, choshnagir, bakovul va boshqa shunga o‘xshash tarixiy kasb-hunar nomlari tilga olingan.

- Dorug‘a – shahar hokimi

- Kadxudo – qishloq oqsoqoli
- Choshnagir – podshohning dasturxoniga qaraydigan xodima
- Bakovul – podshoh oshxonasining javobgar xodimi

Asliyat: Mulla Fazliddin ertalab podshoh in'om qilgan to'bachoq otni mindida, shahar dorug'asi qabul qiladigan mahkamaga yo'l oldi

Tarjima: The next morning, after a restful night's sleep, Mullah Fazliddin saddled the horse presented to him by Umarshaikh and set out for the governor's chamber in Andijan.

Badiiy tarjima jarayonida ko'plab murakkabliklar va turli xil muammolarga duch kelinadi. Tarjimon muallifning individual uslubini, asarning yaratilgan davrini, tilning o'ziga xos semantik va stilistik qatlamlarini chuqur anglagan holda, qo'llangan leksik birliklarga ma'nodosh ekvivalentlarni tarjima tilida topa olsa, yuqori sifatli tarjima yuzaga keladi. Asar tarjimasida uchraydigan qiyinchiliklar tarjima me'yorlariga amal qilish orqali bartaraf etiladi. "Yulduzli tunlar" romanida ham lingvo-madaniy unsurlarni tarjima qilish jarayonida tarjimonning muayyan qiyinchiliklarga duch kelishi tabiiy hol hisoblanadi. Chunki mazkur roman o'zbek xalqining tarixi, madaniyati va urf-odatlarini keng qamrab olgan yirik badiiy meros namunalaridan biridir.

Nasriy adabiyot hikoya, roman, esse, felyeton kabi bir qator janrlarni o'z ichiga oladi. U bir tomondan, ijtimoiy voqealar, inson tabiatiga xos jihatlar va hayotiy munosabatlarni tasvirlash vositasi bo'lsa, ikkinchi tomondan, tilning o'ziga xos shakllari, stilistik uslublari va nutq vositalarining keng qo'llanish maydonidir. Shu sababli, nasriy asarlarni tarjima qilish jarayonida quyidagi muammolar paydo bo'lishi mumkin:

Madaniy kontekstning yo'qolishi. Nasriy asarlar ko'pincha muayyan davr, millat yoki mintaqaga xos realiyalarni aks ettiradi. Agar tarjimon mazkur kontekstni to'g'ri talqin qilmasa yoki uni tarjima tilining madaniy muhitiga moslashtira olmasa, matnning mazmuniy teranligi kamayadi. Shuning uchun "Yulduzli tunlar" asarida uchraydigan madaniy jihatdan o'ziga xos so'zlar ayrim o'rinlarda tarjima qilinmagan,

chunki ularni to'liq ekvivalent bilan berish ma'no yo'qotilishiga olib kelishi mumkin. Pirmiqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" romani tarixiy realizm uslubida yozilgan bo'lib, muallif Zahiriddin Muhammad Bobur davri voqealarini, ijtimoiy muhitni va turmush tarzini lingvo-madaniy unsurlar asosida qayta yaratishga erishgan. Tarjima jarayonida tarjimon muallifning uslubini saqlagan holda, asarning mazmunini buzmasdan ingliz tiliga to'g'ri ko'chirishga intilgan. Asar tarixiy xarakterga ega bo'lgani sababli uning ingliz tiliga tarjimasida lingvo-madaniy unsurlarning ko'plab uchrashiga tabiiy hodisa sifatida qaraladi. Mahalliy urf-odatlar ham lingvo-madaniy mazmundagi qiyinchiliklarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Masalan, o'zbek madaniyatidagi "unashtiruv marosimi", "qizni berish", "to'y" kabi tushunchalar boshqa millat vakillari uchun begona bo'lishi mumkin. Asarda mazkur odatlar tilga olinganligi sababli tarjimada ular engagement va wedding party kabi umumqabul qilingan ekvivalentlar orqali ifodalangan.

"Yulduzli tunlar" romani ham nasriy asarlar sirasiga kiradi. Chumki bu roman she'r bilan emas, balki gap va jumlar bilan boyitilgan. Asl asarda muallif tomonidan qo'llanilgan badiiy uslub, metafora, metonimiya yoki tarixiy va arxaik so'zlar va hokazolar tarjima qilishni murakkablashtiradi. Ammo shunga qaramasdan tarjimonning til sohasidagi ilmi va tajribasi asarning mazmunini va muallifning aniq maqsadini saqlashga yordam bergan².

Haqiqatdan ham, keltirilgan fikr badiiy tarjima jarayonining murakkabligini to'liq aks ettiradi. Nasriy asarda uchraydigan metafora, metonimiya, arxaik yoki tarixiy so'zlar, shuningdek, muallifning o'ziga xos uslubi tarjimada eng ko'p e'tibor talab qiladigan jihatlardandir. Bunday unsurlar nafaqat tilning, balki madaniy so'zlarlarning ham mazmunini o'zida mujassam etgani sababli ularni boshqa tilga ko'chirish jarayoni murakkab kechishi tabiiy. Abdullaev, A tomonidan bildirilgan fikr badiiy tarjimaning mohiyatini aniq ifodalaydi va mazkur jarayonning murakkabligini ilmiy asosda yoritib beradi.

² Abdullaev, A "Tarjima san'ati va uning muammolari"-Toshkent, 2005: Ilm-Fan Nashriyoti.

“Yulduzli tunlar” romani tarixiy asar hisoblanganligi uchun mutoalaa davomida ko‘plab joy nomlariga duch kelish mumkin. Har bir joy nomlari transliteratsiya uslubi orqali tarjima qilingan.

Atoqli otlarni tarjima qilishda tarjimon tarixiy va madaniy bog‘liqlikka e’tibor qaratishi lozim. Nomlar odatda, muayyan davrga yoki madaniyatga bog‘liq bo‘ladi. Tarjima qilinganda o‘z ma’nosini yo‘qotishi ehtimoldan holi emas. Masalan, ushbu roman tarixiy bo‘lganligi sababli joy nomlariga yoki kasbga oid nomlarga to‘la. Ingliz tiliga ularni tarjima qilish mumkin ammo uning tarixiy konteksti yo‘qolish darajasi yuqoriroq ³.

Haqiqatdan ham, atoqli otlar tarjima jarayonida semantik yoki madaniy yo‘qotishlarga eng ko‘p uchraydi. Tarjima qilingan nomning tarixiy kontekstdan uzilib qolishi o‘quvchi tasavvurida asarning asl ruhini susaytirishi mumkin. Shuning uchun Ketford J.S tomonidan ta’kidlanganidek, bunday nomlarni tarjima qilishda ikki til o‘rtasidagi lingvistik moslikdan ko‘ra, tarixiy-madaniy moslikka e’tibor qaratish muhim sanaladi. “Yulduzli tunlar” romanidagi joy nomlari, unvonlar va kasb-hunar nomlari transliteratsiya orqali berilgani asarning tarixiy o‘ziga xosligini saqlashda eng maqbul yo‘l bo‘lganligi bilan ajralib turadi.

O‘zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilingan nafaqat tarixiy balki, ilmiy, texnik, badiiy asarlarda ham ko‘plab imloviy xatolarga yo‘l qo‘yilishi mumkin. Har bir xato so‘zning madaniy ma’nosining yo‘qolishiga yoki kitobxonda noto‘g‘ri ma’lumot paydo bo‘lishiga sababchi bo‘ladi. Bu borada tarjimondan bilim va ko‘nikma ta’lab qilinadi. Imloviy xatolar asosan joy, ism, obyekt nomlarida paydo bo‘ladi. So‘zlarning imlosini to‘g‘ri tarjima qilish – bu mazmun va madaniyatni saqlashning bir turidir. Muallif maqsadini imloviy xatolarsiz yetkazish, umuman olganda, tarjima sifatini va uning muvaffaqiyatini aniqlaydi.

³ Catford.J.C. “A Linguistic Theory of Translation”- London,1965: Oxford University Press.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Catford. J.C "A Linguistic Theory of Translation"1965 Oxford University Press.1965
2. Newmark, Peter. A Textbook of Translation. Prentice Hall.1988.
3. Baker, M."Routledge Encyclopedia of Translation Studies". London: Routledge,1998.
4. Abdullaev. A"Tarjima san'ati va uning muammolari"-Toshkent,2005: Ilm-Fan Nashriyoti.
5. Newmark, P. "A Textbook of Translation"- New York,1988: Prentice Hall.
6. Vinay.J.P and Darbelnet. J. "Comparative Stylistics of French and English,1995: A Methodology for Translation". Amsterdam: John Benjamins Publishing.
7. Nida.E.A and Taber. C. R."The Theory and Practice of Translation"- Leiden,1969: Brill.
8. Catford.J.C. "A Linguistic Theory of Translation"- London,1965: Oxford University Press.